

## AVTOMOBILLARGA SERVIS XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

**Xidirov Muso Qahramon o'g'li**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti,  
Transport vositalari muhandisligi kafedrası assistenti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada avtomobil transportining ishlashi jarayonida avtomobillarga servis xizmat ko'rsatish ishlarini tashkil etishda servis xizmat ko'rsatish markazidagi barcha ishlar texnologik jarayonlarning aniq ketma-ketligida amalga oshiriladi. Shu sababli avtomobillar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o'z mahsulotlarini xaridorga sotish uchun barcha avtomobillar sotiladigan va foydalaniladigan joylarda ularga texnik xizmat ko'rsatuvchi va zarur materiallar va ehtiyot qismlar bilan savdo qiluvchi ustaxonalar, ya'ni avtoservis korxonalarini tashkil etib ishga tushirganlar.

**Kalit so'zlar:** Avtomobil, avtoservis, korxonalar, servis xizmati, ehtiyot qismlar.

### ABSTRACT

In this article, all the work in the service center is carried out in a clear sequence of technological processes in the organization of car service during the operation of motor transport. For this reason, car manufacturing companies have established and started workshops, i.e. car service enterprises, in the places where all cars are sold and used to sell their products to customers, providing them with technical service and trading with necessary materials and spare parts.

**Key words:** Car, car service, enterprise, service, spare parts.

### KIRISH


Hozirgi kunda avtoservis avtomobillarga xizmat ko'rsatishning birinchi va dastlabki usulidir, chunki dunyoda avtomobillarni birinchilardan bo'lib sotib olgan va foydalanadiganlar texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash o'quviga ega bo'lmaganlar. Shu sababli avtomobillar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o'z mahsulotlarini xaridorga sotish uchun barcha avtomobillar sotiladigan va foydalaniladigan joylarda ularga texnik xizmat ko'rsatuvchi va zarur materiallar va ehtiyot qismlar bilan savdo qiluvchi ustaxonalar, ya'ni avtoservis korxonalarini tashkil etib ishga tushirganlar.

Keyinroq, (XX asr birinchi choragida) dunyoda (Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropada) avtomobil parkining o'sib borish natijasida avtomobillarga servis usulda xizmat ko'rsatuvchi mustaqil, ya'ni avtomobillar ishlab chiqaruvchilarga qarashli

bo‘lmagan, avtoustaxonalar va boshqa turli korxonalar ham paydo bo‘la boshlagan. Jahon avtomobil parkining tezkor sur‘atlarda o‘shishi natijasida avtomobil servisi tobora rivojlanib avtomobil sanoati va transportning tengdoshi va yo‘ldoshi sifatida ularning ommaviy va qudratli tarkibiy qismiga aylanib ketdi va usiz hozirgi zamon avtomobillar «hayoti»ni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Avtoservis dunyo mamlakatlarining shaharlari, qishloqlari, yo‘llar bo‘ylari va boshqa ko‘p joylarida o‘rnashgan, keng tarqalgan va uzluksiz ishlovchi, turli xil va tipdagi xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar tarmoqlari chunonchi, ombortarqatuvchi terminallar, ta‘minlovchi-tiklovchi avtomarkazlar, texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari va dilerlari, savdo ta‘minlash shahobchalari va boshqalarga egadir.

### AVTOSERVIS KORXONALARINING TURLARI

Tabiiyki, avtoservis xizmatining asosiy qismini maxsus avtoservis korxonalari tashkil etadi. Ulardan tashqari bu xizmatni asosiy ishlab chiqarish faoliyati boshqa, turli soha bo‘lgan korxonalar (masalan, yuk va yo‘lovchilar tashuvchi avtotransport korxonalari) ham bajaradilar. Lekin ularning ulushi ko‘rsatilgan umumiy xizmat hajmida juda oz, faqat bir necha foiznigina tashkil etadi. Jahonda avtoservis korxonalari o‘z faoliyati va mavjud iqtisodiyijtimoiy tuzum asosida tarixiy shakllanib va rivojlanib kelgan va barcha mamlakatlar xududi bo‘ylab shahar va qishloq, magistral yo‘l yoqalari, aholi zich yashovchi mavze, avtosayohatchilar to‘xtovchi mexmonxona va oromgoh (motel) larda joylashgan. Bunday korxonalar o‘zlari bajaradigan xizmat turlari va ishlab chiqarish faoliyatiga qarab quyidagilarga bo‘linadi.



**1-rasm.** Avtoservis korxonalarining turlari.

### SERVIS XIZMAT KO‘RSATISH

Avtomobillarga servis usulida xizmat ko‘rsatish ularni texnik ta‘minlashning jahon bo‘ylab eng keng tarqalgan usulidir. Servis inglizcha «Service» so‘zidan olingan bo‘lib xizmat ko‘rsatish ma‘nosini bildiradi. Avtomobillarga servis usulida xizmat ko‘rsatish (avtoservis) avtomobillarning ishlashga yaroqliligi, ishonchliligi,

xavfsizligi, tejamkorligi va zaruriy tashqi ko‘rinishini ta’minlash uchun bajariladigan bir qancha xizmatlar majmuidir.

Xizmatlar servis usulida bajarilishi uchun u quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi shart:

- hammabopligi, ya’ni xizmatdan mijoz istalgan korxonasida foydalanishi imkoniyatiga ega ekanligi;
- bajarilgan xizmatlar sifati davlat qonunlari asosida kafolatlanishi;
- xizmat korxonalarida orasida mijozlar uchun raqobat paydo bo‘lishi munosabati bilan servis madaniyatining oshishi va sifatining yaxshilanishiga doimo rag‘bat mavjudligi;
- almashtirilgan ehtiyot qismlar va materiallarning ishonchli ekanligi;
- mijozlar xizmatlaridan foydalanishining qulayligi, osonligi bilan o‘ziga jalb qila bilishi;

Umuman, avtomobillarga servis sifatida bajariladigan xizmatlar texnik, tijoriy, mijozlar bilan ishlash kabi qismlardan iboratdir.

Avtomobildan tejamkor va xavfsiz foydalanish, va uni yaxshi holatida saqlab turish uchun, avtomobilga texnik xizmat ko‘rsatilishi belgilangan davriylikda bajarilishi kerak.

Texnik xizmat ko‘rsatishning bajarilishi servis kitobchasidagi yozuv bilan tasdiqlanadi. Uning sanasi va o‘tilgan yo‘l texnik xizmat ko‘rsatish stansiyasining muhri va imzo bilan tasdiqlanadi. Texnik xizmat ko‘rsatishdan tasdiqlangan holda o‘tish kafolat majburiyatlari va boshqa majburiyatlar bajarilishining majburiy sharti bo‘lib, avtomobilning sotilishida hisobga olinadi, shuning uchun servis kitobchasi to‘g‘ri to‘ldirilishini nazorat qiling.

### **SERVIS XIZMAT KO‘RSATISH QUYIDAGILARDAN IBORAT:**

- Nazorat ko‘rigi (avtomobilning egasi tomonidan o‘tkaziladi)
- Davriy texnik xizmat ko‘rsatish (rasmiy diler tomonidan o‘tkaziladi)
- Avtomobilning mavsumiy ko‘rigi (rasmiy diler tomonidan o‘tkaziladi)

Nazorat ko‘rigi (avtomobilning egasi tomonidan o‘tkaziladi)

Nazorat ko‘rigi avtomobilning egasi tomonidan yo‘lga tushishdan avval. Va uzoq safarlarning paytida o‘tkaziladi. Uzoq safarlarning paytida, quyida ko‘rsatilgan ishlarni kamida, har bir 500 km yo‘l o‘tilganidan keyin bajarilishi kerak:

#### **I. TASHQI KO‘RIK**

1. Shinalardagi havoning bosimini va shinalarda shikastlanish izlarining yo‘qligini tekshiring;
2. G‘ildiraklarni mahkamlash boltlarining mustahkam tortilganligini tekshiring;
3. Jihozlanish va signalizatsiya asboblarining sozligini tekshiring;

4. Moy, sovituvchi suyuqlik, yonilg'i va tormoz suyuqligining oqishi izlarining yo'qligini tekshiring.

## II. ICHKI KO'RIK

1. Lyuftning kattaligini va rul g'ildiragining mahkamlanishini tekshiring tekshiring;

2. To'xtatib turish tormozi dastagining yurishi kattaligini tekshiring;

3. Ovozli signal, old oynaning oyna tozalagichlari va burilish ko'rsatkichlarining sozligini tekshiring;

4. Avariya yorug'lik signalizatsiyasining sozligini tekshiring (bunda o't oldirish qulfidagi kalit I holatida bo'lishi lozim);

5. Asboblarning panelida joylashgan nazorat-o'lchov asboblarining sozligini tekshiring.

6. Bakdagi yonilg'ining sathini ko'rsatkichga qarab tekshiring.

7. Orqa ko'rish oynalarining sozlanishini tekshiring, zarur bo'lganda sozlanishini amalga oshiring.

8. Eshik qulflarini bloklash mexanizmlarining sozligini tekshiring.

9. Ilashish muftasi pedalining erkin yurishi kattaligini, pedalning boshlang'ich holatini va ilashish muftasini boshqarish yuritgichining ishlashini tekshiring.

## III. MOTOR BO'LIMI

1. Motordagi moyning sathini tekshiring;

2. Kengaytirish bakidagi sovituvchi suyuqlikning sathini tekshiring;

3. Akkumulyator batareyasining holatini tekshiring;

4. Oyna tozalagichning bakidagi suyuqlikning sathini tekshiring;

5. Asosiy tormoz silindri va ilashish muftasining gidroyuritgichi bakidagi ish suyuqligining sathini tekshiring;

6. Rul boshqaruvi gidrokuchaytirgichining bakidagi ish suyuqligining sathini tekshiring.

### **Avtomobilning mavsumiy ko'rigi (rasmiy diler tomonidan o'tkaziladi)**

Avtomobilning mavsumiy ko'rigining asosiy vazifasi — avtomobilni yilning sovuq yoki issiq faslidagi foydalanish sharoitlariga tayyorlashdir. Avtomobilning mavsumiy ko'rigi keskin sovuq tushishi paytlarida majburiy tartibda o'tkazilishi kerak, shinalari keskinroq ob-havo sharoitida foydalanishga yaroqli turiga almashtirilishi lozim, avtomobilning sovutish tizimini ko'zdan kechirish, hamda uning germetikligini tekshirish kerak, zarur bo'lganda sovutish tizimini almashtirish lozim. Qishga tayyorgarlik ko'rganda, ishga tushirish isitgichining holatini tekshirish, va moyni almashtirish kerak, oyna tozalagichning bakidagi suvni muzlamaydigan suyuqlikka

almashtirish lozim. Har qanday avtomobilning mavsumiy ko'rigini yiliga ikki marta o'tkazish kerak.

### **AVTOMOBILLARNI FOYDALANISHNING OG'IR SHAROITLARI**

- Avtomobilni uzoq vaqt turishi va yoki avtomobilning past tezlik bilan tez-tez to'xtash rejimida yurishi;
  - Avtomobilni changi ko'p joyda boshqarish;
  - Avtomobilni tepalikli joylarda va tog'da boshqarish;
  - Tirkamani shatakka olish;
  - Avtomobilni shahar rejimida, atrof muhitning harorati 32°C va undan yuqori bo'lganda boshqarish;
  - Avtomobildan taksi yoki yuk tashish avtomobili sifatida foydalanish;
  - Atrof muhitning harorati 0°C dan past bo'lganda dvigatelni tez-tez ishga tushirish
  - Avtomobildan tegishli bo'lmagan xususiyatli yonilg'i bilan, yomon sifatli yonilg'i bilan va yoki past oktan sonli yonilg'i bilan foydalanish.

### **AVTOMOBILLARNING OG'IR (EKSTREMAL) SHAROITLARIDA FOYDALANGANDAGI TALABLAR**

- Jamoat transporti, harbiy yoki tijorat transporti sifatida, shu jumladan:
  - Tez yordam mashinalari, politsiya va avariya-yulquruv xizmatlari.
  - Fuqaro transport vositalari, masalan harbiy maqsadlarda ishlatiladigan yengil yuk mashinalari va yo'tanlamas avtomobillar.
  - Texnik yordam vositalari, masalan, bir avtomobilning tirkama va evakuator yoki doimiy ravishda tirkamalar yoki boshqa yuklarni tashish, buksirovka uchun ishlatiladigan transport vositalari.
  - Ko'pincha tijorat maqsadlarida foydalaniladigan avtomobillar, masalan, kuryerlik vositalari, xususiy xavfsizlik mashinalari yoki kun bo'yi 24 soat davomida ishlaydigan boshqa avtomobillar.
  - Havoda qum va chang ko'p bo'lgan joylarda, masalan, neft quvurlari va shunga o'xshash joylarda doimiy ravishda ishlatiladigan har qanday avtomobillar.
  - Avtomobildan muntazam ravishda 6 km gacha bo'lgan qisqa masofalarga borib kelishda foydalanish.

#### **Avtoservis xizmatiga qo'yiladigan talablar va ularni belgilovchi hujjatlar**

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardoshlik va muvaffaqiyatli kurash olib borishning asosiy shartlaridan biri bozorga qo'yilgan tovar yoki xizmatning yuqori sifatli bo'lishi va bunga beriladigan kafolatlardir. Avtoservis xizmati ham bu qoidadan mustasno emas, chunki mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati xizmat ko'rsatuvchilarning tadbirkorlikdagi muvaffaqiyatlari garovidir. Xizmat

ko'rsatish sohasida, jumladan avtoservis xizmatida ham, sifat ikki qismdan, ya'ni avtomobilda bajarilgan ishlarning sifati va avtomobillar egalari- mijozlarga qilinadigan muomala madaniyati va qulayliklardan iboratdir.

Shuni aytish zarurki, O'zbekiston Hukumatining keyingi yillardagi tabdirkorlikni rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilgan qarorlariga asosan litsenziyalashtirilgan xizmatlar ro'yxati har yili qayta ko'rib chiqiladi va qisqartirilib borilmoqda. Shu qarorlarga asosan avtoservis korxonalarini va ularning xizmatlarini sertifikatlashtirish ham vaqtincha zarur emas.

Bu qonunlardan tashqari davlatning yana bir qancha standartlari mavjud bo'lib, ular xavfsizlikni ta'minlash va tabiatni asrash, ekologik talablardan kelib chiqadi, masalan, avtomobil gabaritlari, chiroqlari, signalizatsiya, boshqaruv organlariga tegishli standartlar shular jumlasidandir.

Bu hujjatlarning servis xizmatiga taalluqli bo'lgani uchun quyidagilarini ko'rsatish zarur:

«Avtomobillarni sotishga tayyorlash qoidalari»;

«Avtomobillarga kafolatli texnik xizmat ko'rsatish to'g'risida nizom»;

«Ehtiyot qismlar katalogi»;

«Avtomobillarni ishlatish to'g'risida qo'llanmalar»;

«Avtomobillarni ta'mirlash to'g'risida qo'llanmalar»;

«Avtomobilning servis daftarchasi»;

«Avtoservis ishlab chiqarishini tashkil etish yo'riqnomasi»; - «Avtoservis xizmati ko'rsatish qoidalari» va h.k

**XULOSA** qilib aytganda zamonaviy avtomobillar uchun servis xizmat turlarini ham joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi albatta. Bunda ko'chalarimizda ko'payib borayotgan elektromobillar uchun ham servis xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshirishni yo'lga qo'yish shart bo'lib qoladi. Chunki yaqin kelajakda ekologik toza zararsiz elektromobillarga bo'lgan talab oshib boradi va bu turdagi yangi avlod avtomashinalariga ham servis xizmat ko'rsatish talab qilinadi shunday holatdagi muammoni oldini olish maqsadida malakali kadrlarni tayyorlash va ularni shu sohaga o'qitish va amaliyotga keng joriy etish kerak bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Q.M.Sidiknazarov, E.A.Asatov, M.Z.Musajonov, Avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. TAYI professori Sidiknazarov Q.M. tahriri ostida. – T.: Voris-nashriyot, 2008. 560b.
2. Н.Б.Кириченко. Автомобильные эксплуатационные материалы: учеб. пособие для студ. учреждений сред. проф. образования / Издательский центр «Академия», 2007. — 208 с. ISBN 5-7695-3599-7
3. Musajonov M.Z. Avtotransport tarmog‘i korxonalarini loyihalash. –T.: Fan, 2006, 232 b.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)